




ISTE'MOL BOZORI

2018 yil yanvar-iyul

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,5 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,8 %ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (37,9 foiz), Sirdaryo (11,8 foiz), Guliston (8,5 foiz) va Sardoba (8,3 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 2,4 foizga oshib, 1547,3 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-iyul oylarida 1242,2 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (5419,8 ming so'm), Yangiyer shahri (2390,9 ming so'm) va Sardoba tumanida (1655,0 ming so'm) kuzatildi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1547,3	102,4
Guliston shahar	5419,8	110,2
Shirin shahar	862,5	91,9
Yangier shahar	2390,9	99,8
Boyovut tumani	528,3	95,8
Guliston tumani	1550,6	98,6
Mirzaobod tumani	1359,2	93,5
Oqoltin tumani	1012,5	92,7
Sardoba tumani	1655,0	99,7
Sayxunobod tumani	696,3	109,0
Sirdaryo tumani	1206,8	102,3
Xovos tumani	479,9	91,8


KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 93,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 126,6 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektoring jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10% ni tashkil etdi.



Tuman shaharlar kesimida chakana savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida 37,9%, Sirdaryo tumani 11,8%, Guliston tumanida 8,5%, Sardoba tumanida 8,3 %, va eng past ulush Shirin shahar 1,3%, qayd etildi.


2018 yil yanvar-iyul oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-июл ойларida ulgurji tovar aylanmasi 683,7 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 210,9 %, Guliston tumani 128,9 %, Oqoltin tumani 102,9 %, Guliston shahar 108,6 %.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4,1 %ga oshdi va 365,2 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 53,4 %ni tashkil qildi.

Tuman shaharlar kesimida ulgurji savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi boshligi:

Nashr uchun mas'ul: S.Saydaliyeva